

Date: 17th October-2025

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA MIFOLOGIK OBRAZ

Mohinur Sherboyeva

Qoraqalpoq davlat universiteti,

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotasiya: mazkur maqolada mifologik obraz inson bilan birgalikda munosabatda aks ettiriladi. Ko'p hollarda mifologik obrazlarni ertak va afsonalarda uchratish mumkin, shu bilan birgalikda mifologik obrazlarni o'zbek adabiyoti nasrida ya'ni hikoyalarda ham ko'rish mumkin. Mifologik obrazlarni tasvirlashda ularning ko'rinishi, portreti, badiiy vazifasini tasvirlashda ham muallif umumiylik va xususiylikka tayanadi. Quyida Isajon Sultonning "Farishta" hikoyasi misolida mifologik obraz ya'ni farishta timsolining xususiy va umumiy tushunchalari barcha xarakter xususiyatlari ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается мифологический образ в его взаимосвязи с человеком. Мифологические образы во многих случаях встречаются в сказках и легендах, а также в прозе узбекской литературы, то есть в рассказах. При описании мифологических образов, их внешнего вида, портрета и художественной функции автор опирается на общность и конкретность. Ниже, на примере повести «Фаришта» Исажона Султана, будут раскрыты все характерные черты, как частные, так и общие понятия мифологического образа – образа ангела.

Kalit so'zlar: mifologik obraz, konflikt, voqealar rivoji, epik asar, obraz, timsol, qahramon, xarakter.

Ключевые слова: мифологический образ, конфликт, развитие событий, эпическое произведение, образ, символ, герой, персонаж.

Badiiy adabiyotda mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisalarning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Folklor va yozma adabiyotdagi Mifologik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ko'pincha epik asarlarda insonning mifologik personaj bilan to'qnashuvi, olishuvi, jang qilishi aks ettiriladi. Bunda inson o'z aql-zakovatini va jismoniy kuchini ishga solib, yovuz mifologik kuchni yengadi. Aslida bu kabi afsonalar orqali insonning tabiatdagi stixiyali kuchlarga qarshi kurashib, ularni yengishi badiiy talqin qilingandir. Afsonalarda ko'pincha epik qahramonning bahaybat va dahshatli mifologik maxluq – uch, yetti yoxud to'qqiz boshli ajdarhoga qarshi mardlarcha kurashishi tasvirlanadi. Ammo bu hikoya uning teskarisi desa ham bo'ladi chunki, hikoyadagi mifologik obraz salbiy ma'no emas ijobiy ma'no tashiganini ko'rish mumkin. Hikoyaning boshlanishi chekka bir qishloqda yashovchi er-xotinning to'ydan qaytayotganda farishtani ko'rib qolishi bilan boshlanadi. "Farg'onaning chekka bir qishlog'ida er-xotin to'ydan kech qaytishayotgan edi. Terakzorlar adog'ida chakalakzor boshlangan joyda ko'rib qolishdi uni Kichkinagina ekan oyoqchalari ham mittigina



Date: 17th October-2025



Tuproqni changallab olibdi, yelkasida ikkita qanotchasi ham bor, uchidagi parlari shundoqqina loyga belanib, shilvirab tushibdi". Muallif hikoyaning boshlanishini ham peyzaj ya'ni tun tasviri bilan boshlaydi. Bu orqali kirish mumkinki qahramon qalbida ham qandaydir qorong'ulik va zulmat bor, hayotida esa chalkashliklar orasida kechayotganini ko'rish mumkin. Qarshisidan chiqqan farishta esa ularga yuborilgan ilohiy najot va rahmat timsolidir. Badiiy adabiyotda qo'llanadigan farishta timsoli obrazlar hayotida duch keladigan qiyinchiliklarda yo'l ko'rsatuvchi ijobiy kuchlarni ifodalaydi. Muallif bu orqali inson hayotida vijdon, e'tiqod va ilohiy rahmatning mavjudligini ta'kidlamochi bo'ladi. Chunki katta bir qishloqda shu chakalakzorda yotgan farishta boshqa bir insonlarning qarshisidan emas ularning qarshisidan chiqdi. Qarshisidan chiqqanda ham katta, tilaklarni amalga oshiruvchi farishta timsolida emas balki aksincha "... kichkinagina, oyoqchalari mittigina, qanotlari loyga belangan, bir qanotchasi g'ayrioddiy qayrilgan, g'ujanak bo'lib yotgan" holda uchraydi. Bunda ham bir sirlilik, mavhumlik holatini ko'rish mumkin. Bu bilan muallif qahramonni ilohiy tuyg'ular, vijdon, insofga chaqirayotganini ko'rish mumkin. Chunki farishtani birinchi bo'lib ayol ko'radi, ko'rgandan keyin eriga aytganda ham u parvo qilmaydi, sababi u hayolida shuhratparastlik g'oyalarni qurish bilan ovora edi. ". - Voy, anavini qarang! - dedi xotin uni ko'rib. Bir nimalarni o'zicha to'ng'illab kelayotgan er "Bor-e " dedi, keyin baribiram xotining gapiga kirib, u ko'rsatgan tomonga qaradi-da "Iya" deb yubordi ko'zlariga ishonmasdan. Hali mislsiz qahramonliklar ko'rsatib, qishloq ahlini lol qoldirishni hayol qilib kelayotgan bu kishining o'ylari-yu hayollari zumda kapalakday to'zg'ib ketdi, yaqin borishga jur'at qilolmay to'xtadi-da, ko'zlarini katta-katta ochib achinarli ahvolda yotgan mana shu mitti oqish vujudga tikilib qoldi". Hikoyadagi qahramon mittigina oq vujud ya'ni farishtaga termularkan yana bir jarayonni yuzaga chiqqanini ko'rish mumkin **"Sal narida esa katta bir kuchuk bularga xo'mrayib qarab turardi. Qaydan kelgani ham noma'lum edi, tevarakda bunaqa kuchuk yo'q edi. "Tavba, ko'zi g'alati ekanmi?" degan o'y keldi erkakning xayoliga."** Muallif ayni shu satrlar orqali katta bir masalani o'rta tashlayadi va konfliktdan ham mahorat bilan foydalanadi. Ya'ni bu yerda yozuvchi farishtani chiroyli tasvirlar bilan ifoda qilar ekan shu bilan birga uning yonida xo'mrayib turgan, ko'zlari g'alati kuchukni ham ikkalasini yonma-yon qarshilashtirgan holda ifodalaydi. Bu holatdagi konflikt turini obrazlar o'rtasidagi konflikt turiga kiritish mumkin. Chunki farishta yaxshilik timsoli bo'lsa kuchuk esa o'zining nomi bilan ham farishtaga zid bir timsoldir. Yaxshilik – eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Yomonlik – yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yolg'onchilik, pastkashlik, munofikdik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. Ya'ni bu yerda farishtani yaxshilikning timsoli, ilohiy inoyat sifatida olinsa, kuchukni esa hayvoniy xislatlarning ifodasi sifatida olish mumkin. Inson bu

Date: 17th October-2025



hayotda bor ekan u bilan birga doimo yaxshilik va yomonlik ham mavjud bo'ladi. Voqealar rivojida esa muallif farishtani yaxshilikning timsoli ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. To'ydin maishat qilib kelayotgan qahramon farishtani ko'rib uni anglarkan uning qalbida qandaydir bir yaxshilik, vafodorlik, mehr-oqibat tuyg'ulari ko'rinda boshlaydi. **"Uning ko'ngli shu tob yaxshiliklarga limmo-lim to'lib ketganday tuyula boshladi. O'zining birdaniga juda yaxshi odam bo'lib qolganini his qildi, bu juda yoqimli va tiniq tuyg'u, hatto sarmast ham qilardi. Farishtaning o'ligi-ki odamning ko'nglini shunaqa o'zgartirsa, tirigi qanaqa bo'lar ekan, demoqchi bo'ldi xotiniga. Axir, yuragim yorug'likka to'lib boryapti. Ko'p javraganing bilan sen ham yaxshi xotinsan, ke, qo'lingni beraqol. Shu murg'ak vujudning mana shu yotishi nimagadir ko'zimda yosh paydo qilmoqda. Bir-birimizga mehr-oqibatliroq bo'laylik, qara, ajal degan narsa farishtalarni ham omon qo'ymas ekan-ku?".** Muallifning qalamining o'tkirligini shundan ham ko'rib olsa bo'ladi. Birgina mitti farishta timsolida barcha xislatlarni aks ettirib beradi. Bir tarafdin insonlarni to'g'ri yo'lga boshlar ekan, bir tarafdin badiiy san'at namunalaridan ham ustalik bilan foydalanadi, konfliktni ham o'rnida qo'llab voqealar rivojini mohirona tarzda davom ettiradi. Yozuvchi bu mifologik obraz orqali diniy tushunchalarni ham aks ettirib ketadi "Kim bilsin, sen bilan biz tosh qotib uxlab yotganimizda osmonda yana nimalar ro'y berar ekan? Aytishlaricha, uydagi gilos bor-ku, mevasini sotmaymiz deb kecha men bilan xarxasha qilib urishganing qora gilos, o'shaning nechta gul ochib, nechta to'kilishigachayu nechta meva tugishigacha bilarmish farishtalar. Senu men ko'rmasak-da, og'ochlaru ekinlar ustida gir-gir aylanib, hosil yetishishini ta'minlarmishlar. Bu bechora ham senu menga o'xshagan g'ofil mardum uchun nimadir qilishni ko'zlab uchgani aniq, axir uning yemish-ichish, ro'zg'or degan dardi yo'q-ku?". Bu narsalar esa azal-azaldin tabiat qonunidir. Voqea so'nggida qahramon farishtani qutqara olmasa ham undan o'ziga bir ibrat oladi. Aslini olganda esa ularning oldidan chiqqan farishta ham bir sinovdir. Insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi timsoldir. Xulosa qilib aytilganda, hikoyada muallif mifologik obraz orqali insondagi xususiyatlarni aks ettiradi. Shuningdek konflikt orqali yaxshilik va yomonlik, vijdon, insof kabi tuyg'ularni ochib beradi va insonni to'g'ri yo'lga boshlashda farishta timsolidin vosita sifatida foydalanadi.